

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALISED
EDUCATION
BUKHARA STATE UNIVERSITY

English Linguistics Department

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS,
FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND
LANGUAGE TEACHING PROCESSES

(dedicated to the 75th anniversary of Candidate of Philological Sciences,
Associate Professor M.Kh.Alimova)

Proceedings of International Scientific-theoretical Webinar



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

2020-YIL
25-DEKABR

Department
Eng

SOAT 10:00

Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrasi

**“PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL TARJIMASHUNOSLIK VA TIL O’RGATISH JARAYONLARI
INTEGRATSIVASI”**

(Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.H.ALIMOVA tavalludining 75 yilligiga bag’ishlanadi)
mavzusida tashkillashtirilgan Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman



QAYSI TILLARDA
O’ZBEK, RUS, INGLIZ



Manzil: Buxoro daylat universiteti,
Buxoro shahar M.Iqbol ko’chasi
11-uy.

BUKHARA -2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

Инглиз тилшунослииги кафедраси

**ПРАГМАЛИНГВИСТИКА, ФУНКЦИОНАЛ
ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ТИЛ ЎРГАТИШ
ЖАРАЁНЛАРИ ИНТЕГРАЦИЯСИ**

(Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова таваллудининг 75
йиллигига бағишиланади)

**мавзусидаги Халқаро миқёсидаги ОНЛАЙН
илемий-назарий конференция материаллари
ТҮПЛАМИ**

2020 йил, 25 декабрь

**Бухоро
"Дурдона" нашриёти
2020**

уйғун равища ошиб ёхуд камайиб боради. Бунинг учун қуидаги мисолларни кўришимиз мумкин:

“Carpet warms the soul and pleases the Eye”
Spirit-essense-heart-soul-core-character-psych

Green week-2010

Investment opportunites key to success

Key-input-enter-type

Saving eyesight

Vision-eyesight-sight-perception

Unifight knocking at Doors of Asian Games

door-entrance-gate-entry-exit-access-flap

Uzbekistan and Japan step up Cooperation

Step up-increase-intensify-improve-maximize-accelerate-boost

Great Forefathers who made History

YOSH TARJIMONLARDA SINXRON TARJIMA QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*G.G`Abdullayeva
(BuxDU)*

Annotatsiya. Sinxron tarjima murakkab jarayon, biroq sinxron tarjimonlarni tayyorlash undan ham qiyinroq, mas'uliyatlroq jarayon hisoblanadi. Malakali tarjimon egallashi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar, tarjimonlik san'ati bilan bog'liq usullar va mashqlardan tashqari jarayonga tayyorlov mashqlari hamda tarjimonlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham yetarlicha ahamiyat berish kerak. Mazkur maqola ingliz-o'zbek tillari sinxron tarjimonlarini tayyorlashda qo'l keladigan usul va amaliy mashg'ulotlarni tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Аннотация. Синхронный перевод - сложный процесс, но обучение синхронных переводчиков - еще более сложный и ответственный процесс. Помимо навыков и компетенций, которые должен приобрести квалифицированный переводчик, необходимо уделять достаточное внимание методам и упражнениям, связанным с искусством перевода, подготовкой к процессу, а также формированием профессиональных компетенций у переводчиков. Данная статья посвящена анализу методик и практических занятий по подготовке синхронных англо-узбекских переводчиков.

Annotation. Simultaneous translation is a complex process, but training simultaneous interpreters is an even more difficult and responsible process. In addition to the skills and competencies that a qualified translator should acquire, methods and exercises related to the art of translation, preparation for the process, as well as the formation of professional competencies in translators, should be

given sufficient attention. This article is devoted to the analysis of methods and practical training in the preparation of simultaneous English-Uzbek translators.

Kalit so'zlar: Sinxron tarjima, tarjimon, usul, intuitsiya, nutq tezligi, mashq, chapaqay, miya yarimsharlari, asliyat tili, leksik ekvivalentlar, kompressiya, pauza.

Keywords: Simultaneous translation, interpreter, method, intuition, speech rate, exercise, left-handed, cerebral hemispheres, source language, lexical equivalents, compression, pause.

Ключевые слова: Синхронный перевод, переводчик, методика, интуиция, скорость речи, упражнение, левша, полушария головного мозга, первоначальный язык, лексические эквиваленты, компрессия, пауза.

Sinxron tarjima murakkab miya operatsiyalarini o'zida mujassam etgan jarayon ekanligi barchaga ayon. Bu turdag'i tarjima jarayonida miya yarimsharlarning har ikkalasidagi juda ko'plab nuqtalar birdaniga sinxron tarzda harakatga keladi.

Intuitsiya –inson chap va o'ng miya yarimsharlari orasidagi ma'lumotlarni almashtirish evaziga hosil bo'ladigan aloqa hisoblanadi. Sinxron tarjimada ham ikki til saqlanayotgan xotira kataklari orasida xuddi shunday mexanizm ishga tushishi kerak. Odamlar uch turga bo'linadi: 1) o'ng qo'l odamlar; 2) chapaqaylar; 3) ikkasida ham bir xil ish olib boruvchilar. Har bir miya yarimshari ma'lum bir vazifalarni (tahlil qilish, koordinatsiya, his-tuyg'ular, nutq va hk) bajarishga javobgar. Shu bois odamlar "mantiqiy fikrashi yuqori" (o'ng yarimshar) va "ijodiy fikrashi yuqori" (chap yarimshar) kabi guruhlarga bo'linishadi. Lekin tarjimada nutq zonalarining qaysi yarimsharda joylashganini aniqlash muhim emas, muhimi – ikkala yarimsharning bir vaqtida faol tarzda aloqaga kira olishini ta'minlash. Intuitsiyani rivojlantirish uchun o'ng qo'lida yoki chap qo'lida ishlashni afzal ko'rurvchilar uchun teskari munosabatga asoslangan vazifa yoki topshiriqlarni bajarishlarini tashkillashtirish mumkin (masalan, chapaqaylarga mantiqiy-matematik masalalar yechimini topishni vazifa qilib berish). Rubik kublari kabi noverbal boshqotirmali o'yinlar ham intuitsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Malakali tarjimon egallashi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirib borish lozim. Ushbu ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) asliyat tilida tinglash; 2) asliyat tilidagi nutqni tushunish; 2) asliyat tilidagi ma'lumotni eslab qolish; 4) ma'lumotni ongda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, qisqartirish va tahrirlash; 5) nutqning asliyat tilidagi yangi qismini tinglab turib tarjima tilida xabarni yetkaza olish.⁹³

Quyida mazkur ko'nikmalarning har birini rivojlantirish yordam beradigan bir necha usullarni keltirib o'tamiz.

1. Tinglash bosqichi:

⁹³Liontou K. Strategies in German-to-Greek Simultaneous Interpreting:A Corpus-Based Approach //Gramma: Journal of Theory and Criticism. 2011. Volume 19 – p 40

- eshitishni qiyinlashtirish maqsadida tarjimonning mashq jarayonida ma'lumotni tinglayotgan paytida shovqinlar, ortiqcha imo-ishoralar va boshqa chalg'ituvchi vaziyatlarni yaratish;
 - bir vaqtning o'zida ikki tildagi audio manbani eshittirib, talabalardan faqat bir tildagisini esda saqlashni talab qilish;
 - yosh tarjimon qo'liga berilgan matndagi sana, son va kishi ismlarini o'zgartirib baland ovozda o'qib eshittirish, so'ngra farqlarni taqqoslab berishni talabadan so'rash;
 - "Tinglash tanlovi" usulini mashq qildirish. Bunda talabaning ikki qulog'iga har xil naushniklar orqli ingliz tilidagi ikki turli matn eshittiriladi. Talaba ma'lum mavzudagi matnni eshitib borishi, ikkinchisiga e'tibor qaratmasligi kerak;
2. Tushunib yetish bosqichi:
- audio materiallarda nutq tezligi yuqori bo'lishiga e'tibor qaratish;
 - ingliz tilining turli dialektlari (shevalari)ga asoslangan materiallarni eshittirish;
 - bo'lajak tarjimonda taxmin qilish, matn davomini o'ylab topishni mashq qildirish. Bunda o'zbek tilida yoki ingliz tilida tugallanmagan jumlalar beriladi, talabalr ularning davomini o'ylab topadilar;
3. Asliyat tilidagi ma'lumotlarni xotirada saqlash bosqichi:
- xorijiy tilda kishi ismlari va toponimlarni esda saqlashni mashq qildirish;
 - sana va turli xil sonlarni eslab qolishni mashq qildirish;
 - radio yangiliklari, she'rlar yoki nasriy matnlarni yodlashtirish;
 - dastlab bir tilda toponimlar, sonlar, sanalar, ismlar diktantini yozdirish, so'ngra buni ikkala tilda ham takrorlash;
4. Tarjima qilish bosqichi:
- ingliz tilida faqat kalit so'zlarni berib, ingliz tilida mazmunli matn tuzishni mashq qildirish;
 - o'zbek tilida faqat kalit so'zlarni berib, o'zbek tilida mazmunli matn tuzishni mashq qildirish;
 - ingliz tilida kalit so'zlarni berib, o'zbek tilida mazmunli matn tuzdirish;
 - o'zbek tilida kalit so'zlarni berib, ingliz tilida mazmunli matn tuzdirish;
 - kalit so'zlarni ikkala tilda ham berib, o'zbek tilida matn tuzishni aytish;
 - kalit so'zlarni ikkala tilda ham berib, ingliz tilida matn tuzishni aytish;
5. Tarjima tilida fikrni ifodalash bosqichi:
- ingliz tilida eshitgan matnnini o'z so'zlari bilan ifodalshga o'rgatish;
 - o'zbek tilida eshitgan matnnini o'z so'zlari bilan ifodalshga o'rgatish;
 - eshitish barobarida gapirishni mashq qilish;
 - sinxron tarjimonlarni tayyorlaydigan mutaxassis ingliz tilida matnni jumlama-jumla aytadi, talabalar o'sha jumlalar tarjimasini yozib ketishlarini mashq qilish kabi usullarni o'z ichiga olmog'i lozim.

Tarjimonlarni tayyorlaydigan mutaxassis vazifasi talabalarga ko'plab mashq qilish imkoniyatlarini berib, ularga to'g'ri yo'nalish berishdir. Bo'lajak tarjimonlarni tayyorlashda talabalarga o'z ustida ishlashning afzalliklarini tushuntirgan holda jarayonning psixolingvistik tomonlariga e'tibor qaratmoq

lozimligini tushuntirish. Ulardan yetuk sinxron tarjimonlarni yetishtirib chiqarishda jarayonda yuzaga keladigan ham lingvistik, ham nolingvistik muammolarni konseptual tarzda bir butunlikda o'zganib, zarur chora-tadbirlarni qo'llash darkor.

Keltirib o'tilgan tarjimonlik san'ati bilan bog'liq usullar va mashqlardan tashqari yana jarayonga tayyorlov mashqlari (sinxron tarjima amaliyoti bilan bog'liq) ham mavjud. Tarjimonning kabinada to'g'ri joylashuvi va apparaturalar bilan ishlay olish ko'nikmalarini egallashi ham juda muhimdir. Dastlabki mashg'ulotlardan tarjimonlikni o'rganayotganlarga kabinada o'tirishni, charchab qolmaslik uchun korpusni qanday ushlashni, naushnik va mikrofondagi ovoz miqdorini boshqarishni o'rgatish zarur. Shuni ham aytib o'tish joizki, mikrofon yoqilgan paytda hech qanday ortiqcha harakat qilmaslik kerak (yo'talish, ruchkani o'ynatish, stulni tebratish va b.). Dastlabki 2-3 dars mashg'ulotlari davomida tinglovchilarning kabinada joylashish, mikrofon va naushniklarni avtomatik tarzda yoqishni o'ganishlarini nazorat qilish maqsadga muvofiqdir.

Mikrofonda gapiresh. Ushbu mashq tarjimonlarga mikrofondan to'g'ri foydalanish hamda ovoz postanovkasini sozlash imkonini beradi. Boshlang'ich davrda bu mashq o'zbek yoki ingliz tillaridagi yozma matnni ovoz chiqarib o'qish va uni yozib olish ko'rinishida bajariladi. Har bir matnni o'qish 2-3 daqiqa davom etadi. Agar bir nechta tarjimonlar tayyorlanayotgan bo'lsa, o'rgatuvchi yozib olingen ovozlarni hammaga eshittiradi hamda xatolarni ko'rsatib o'tadi (mikrofonga juda yaqin yoki uzoq o'tirish kabi). Bu mashq tinglovchilarning o'zlashtirishlariga qarab 2-3 dars davom etadi.

Original matnni tinglash. Bu mashq yosh tarjimonlarda sinxron tarjima kabinasida o'tirib original matnni tinglash ko'nikmasini shakllantiradi. Mashq faqat ingliz tilida amalga oshiriladi, chunki ona tilida tinglash juda oson vazifa hisoblanadi. Dastlab naushniklar orqali juda sekin nutq tezligida tinglovchilarga leksikasi tanish bo'lgan original matnlar eshittiriladi. Tinglab bo'lingach, talabalarga tushunib yetganlarini tekshirish maqsadida yo o'zbek yo ingliz tilida tezkor savollar beriladi. Keyinroq bu mashq murakkablahtirib boriladi: nutq tempi oshiriladi, leksikasi notanish so'zlar qatnashgan matnlar bilan ish olib boriladi. Mashqlar 3-4 mashg'ulot davomida 2-3 marotaba 3 daqiqa davom etadigan matnlar bilan olib boriladi.

Original matnni takrorlash. Mazkur mashq bir vaqtda parallel tarzda eshitish va gapireshni uddalay olish ko'nikmasini rivojlanrtirish maqsadida bajariladi. Xuddi oldingi mashqlardek bu mashq ham qiyinlashib borish darajasida turli variantlarda bajariladi. Bunda naushnikda tinglangan o'zbek tilidagi matn tinch va bir tekisda mikrofonga qaytarib aytildi. So'zlovchidan necha daqiqaga orqada qolganini o'lchash bu yerda ahamiyatli emas. Keyinroq ingliz tilidagi matnlar bilan ishlashga o'tish mumkin. Talabalar bir xil maromda matnni takrorlaydilar. Mashqning oxirgi qiyinlik darajadagisi bir tilda matnni boshqa tildagisi bilan o'rinn almashishidir.

Original matnning pauzalar orqali takrorlanishi. Bu mashq avvalambor original tildagi matnni segmentlarga ajratish ko'nikmasini shakllantiradi.

O'rgatuvchi ingliz tilidagi matnning har bir intonatsion-ma'noli qismalarini pauzalar orqali o'qib eshittiradi yoki audio materialdan tinglovchilar ritmik guruhlar, sintagma va taktlarni ajratib oladilar. Mazkur mashqlar 3-6 dars mashg'ulotlarida 7 daqiqalik seanslarda mashq qilinadi.

Leksik va sintaktik ekvivalentlarni topishni mustahkamlash. Ushbu mashq uch ko'rinishda olib boriladi: a) leksik, frazeologik va terminologik ekvivalentlar topishni o'rganish; b) sintaktik ekvivalentlarni o'rganish; d) leksik va sintaktik ekvivalentlar topishni kompleks o'rganish. Birinchi turdag'i mashqni bajarish uchun ijtimoiy-siyosiy mavzudagi inglizcha (qaysi sohada sinxron tarjimon tayyorlanayotgan bo'lsa, o'sha mavzuda) terminlar ro'yxati tuziladi hamda bu terminlarning o'zbek tilidagi ekvivalentlari va shu ekvivalentlar hosil qiladigan birikmalar o'rganib chiqiladi. Ekvivalentlarni tanlashda ularning stilistik jihatdan neytral bo'lishiga ahamiyat berish zarur bo'ladi. Bunga qo'shimcha ravishda yana taniqli davlat arboblari, xalqaro tashkilotlar, geografik joylar atamalari ro'yxatini ham tuzish maqsadga muvofiq.

Sintaktik ekvivalentlarni topa olishni mashq qilishda yozma tarjima matnlaridan foydalansa bo'ladi. Bunda bir til sintaktik qurilishining ikkinchi til sintaktik qoliplariga tugal gap darajasida joylashtirilishi ko'zdan kechiriladi. Leksik va sintaktik ekvivalentlar topishni kompleks o'rganish mashqlari mashg'ulotlarda yuqoridagi ikki turdag'i mashqlarni birlashtirgan holda olib boriladi. Ushbu mashqlar to to'liq o'zlashtirilmagunicha har darsda 7-10 daqiqagacha mashq qilinadi.

Nutqni qisqartirish. Nutqni qisqartirish (kompressiyalash) turli sathlarda tashkil qilinadi: so'z birikmalarini sathida, fraza va gaplarni sathida. Dastlab so'z birikmalarining bitta so'z bilan ifodalanishini topish mashq qilinadi.

Qog'ozdan tarjima qilish. Fraza va gaplarni qisqartirish mashqlarida qog'ozdan tarjima qilish usulidan foydalaniladi. Bu mashq orqali talabalar notanish bo'lgan matnni qiyinchiliksiz va hech qanday tayyorgarliksiz tarjima qila oladilar.

Yuqoridagi mashqlar o'zbek va ingliz tillari orasidagi sinxron tarjima jarayonini optimallashtiruvchi mashqlar hisoblanib, ulardan vaziyatga, talabalar bilim darajasiga qarab xohlagan muddatda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlarro`yxati:

1. Gile D. Basic concepts and models for interpreter and translator training. Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins: 1995-278p
2. Li Ch. Coping Strategies for Fast Delivery in Simultaneous Interpretation // Specialised Translation. 2010. Issue 13 – p 19-25
3. Lontou K. Strategies in German-to-Greek Simultaneous Interpreting: A Corpus-Based Approach // Gramma: Journal of Theory and Criticism. 2011. Volume 19 – p 37-56
4. Muminov O. A guide to Simultaneous Translation. Tashkent, 2005. 42 b.
5. G'ofurov I. va boshqalar. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.- Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2012- 169b

<i>Tashpulatova V.I.</i> Pragmatic solution of translation in linguacultural adaptation.....	341
<i>Quvvatova Sh.</i> Ingliz-o ‘zbek tarjima jarayoni debochasi.....	343
<i>Бабаев М.Т., Бабаева В.Т.</i> Чет тилларини ўрганишда таржиманинг аҳамияти ва роли.....	348
<i>Раджабова М.А.</i> Ономастик таркибли фразеологизмларнинг таржимашуносликдаги ўрни.....	351
<i>Zokirova N.S., Bahodirova M.</i> Adequacy and Equivalence in translation studies.....	356
<i>Kobilova A.B., Sidikboeva G.</i> Representatives of the first and second stage of comparative studies.....	361
<i>Сайдова М.У.</i> Инглизча адабиётшунослик терминларини ўзбек тилига таржима қилиш масалалари.....	365
<i>Navruzova N.H.</i> Kombinator va pozitsion fonetik o’zgarishlar (Ingliz va o’zbek tillari misolida).....	368
<i>Тиловова Г.А.</i> Немис ва ўзбек тилларида ўрмончилик терминларининг диахрон ва синхрон тадқиқи.....	370
<i>Шарипова М.Ш.</i> Она тили ва чет тилини киёслаб укитиш оркали эстетик дунёкарашни шакллантириш масалалари.....	374
<i>Каримов Р.А.</i> Ўзбек-инглиз параллел корпусида бирликларнинг турли структуралар билан ифодаланиши ва уни параллеллаш масаласи.....	380
<i>Каримов Р.А.</i> Реалияларнинг таржимада берилиши ҳамда унинг параллел корпусда ифодаланиши.....	384

4-ШЎЙБА: ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

<i>Akobirova Z.R.</i> Overcoming challenges for International students in the United States universities: English language proficiency and academic success.....	389
<i>Ахмедов Б.Я.</i> Формирование у учащихся навыков языковой догадки.....	391
<i>Abdujabbarova Z.R.</i> Chet til o’qitish qiyosiy metodikasi xususida.....	395
<i>Аҳмедова Н.М.</i> Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини интеграциялаштиришнинг инновацион технологиялари.....	400
<i>Abdullayeva N.O., Gulyamova M.</i> O’quvchi ta’liming tuzilishida ota-onalarning pedagogik ta’limi tizimining roli.....	405
<i>Abdullayeva G.G., Nasriyeva Sh.F.</i> Personality factor as one of the main issues influencing language learning.....	407
<i>Fayzullayeva A.I., Djurayeva D.R.</i> Ingliz tili o’qitishda multimedia vositalaridan foydalananish samaradorligi.....	412
<i>Nazarova G., Sharipova G.</i> Enhancing students’ speaking skills through the technique “Debate”.....	414